

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

No 858  
“09” 08 2022 y.

“Tasdiqlayman”  
O'quv ishlari prorektori  
O.N.Bozorov  
“09” 08 2022 y.



**MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI**  
**FANI**  
**SILLABUSI**

<b>Bilim sohasi:</b>	400000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta'lif sohasi:</b>	410000 – Iqtisod
<b>Magistratura mutaxassisliklari:</b>	70410401-Davlat moliyasi va xalqaro moliya

Qarshi-2022

Fanning sillabusi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Egamberdiyeva S.R. – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

Ergasheva Z. – Qarshi shahar “Audit-hisob markazi“ MCHJ raisi.

Fayziyeva SH.SH. – QMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil 24.08.... dagi 1- son yig‘ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 24.08 dagi 1 - son yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 29.08 dagi 1 son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i**

Sh.R.Turdiyev

**Fakultet uslubiy komissiyasi raisi**

A.B.Qurbanov

**Kafedra mudiri:**

A.T.Alikulov

**“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”**  
**fani sillabusi**

<b>Fan (modul) kodi</b> 336 IFRS 1 4 1.02	<b>O‘quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS krediti</b> 4
<b>Fan (modul) turi</b> Majburiy fanlar	<b>Ta’lim tili</b> o‘zbek		<b>Haftalik dars soati</b> 4
<b>Fanning nomi</b> Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari</b> (soat)	<b>Mustaqil ta’lim</b>	<b>Jami yuklama</b>
1-semestr	60	60	120

**O‘qituvchi haqida ma’lumot**

<b>Kafedra nomi</b>	Buxgalteriya hisobi va audit		
<b>O‘qituvchilar</b>	F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
<b>Ma’ruzachi</b>	Egamberdiyeva Salima Rayimovna	+998 90 517 30 80	Egamberdiyeva.salima@bk.ru
<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	Egamberdiyeva Salima Rayimovna	+998 90 517 30 80	Egamberdiyeva.salima@bk.ru
<b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>	-	-	-

**I.Fanning mazmuni**

Ushbu kursda ‘Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari’ fanining mazmuni, predmeti va metodi, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar haqida tasavvurga ega bo„lishi, tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi, nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi, baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi, nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifini bilishi va ulardan foydalana olishi, moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi kabi mavzular uzviylik va uzlusizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlik asosida o‘rganiladi. Fanni o‘rganish orqali mutaxassis kasbiy faoliyati davomida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni qo‘llanilishini to‘liq o‘zlashtiradi. Ushbu ‘Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari’ fanini o‘qitish buxgalteriya hisobi sohasidagi mutaxassis – iqtisodchilarni tayyorlash bo‘yicha qo‘yilgan talablardan kelib chiqadi. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha yetuk mutaxassislarini tayyorlash

tizimida ‘Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari’ fani yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu fanni o‘rganish talabalarga o‘xshash fanlarni chuqur o‘rganish uchun yetarli asos bo‘lib xizmat qiladi.

**“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanining asosiy maqsadi** – magistrantlarda xo‘jalik yurituvchi sub“ektlarning moliyaviy-xo,,jalik faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo,,yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini uyg,,unlashtirgan holda magistrantlarga moliyaviy hisobotlarni xalqaro darajada tayyorlash va taqdim etish, buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida faoliyat yuritayotgan korxonalarini xalqaro standartlarga muvofiq transformatsiya qilishni o,,rgatishdan iborat.

Asosiy maqsad esa kelajakda shu sohadagi mutaxassislariga buxgalteriya hisobini tashkil qilish, ishbilarmonlik faoliyati bo‘yicha mustahkam nazariy bilim berish, tajribalarni o‘rgatish, hisob siyosatini o‘rnatish, moliyaviy siyosat, iqtisodiyotni boshqarishda asoslanadigan va tegishli qarorlar qabul qilinadigan axborotlarni yig‘ish va ularga ilmiy asosda ishlov berish usullarini o‘rgatishdir.to‘g‘risida nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

## **II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiylar masalalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- moliyaviy hisobot transformatsiyasi bo,,yicha ko,,nikmalariga ega bo,,lishi kerak.
- konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi malakalariga ega bo‘lishi kerak.

## **III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari**

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;
- mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;

- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;

-mustaqil ta'lim olish va ishslash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishslashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, perceptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarni baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezонни танлаш;
- о'кув мақсадларини тоифалаш;
- о'кув материалларини модуласхтириш;
- уларни о'рганиш, тahlil qilish va qayta ishslash;
- о'рганиш натижаларини aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talab etiladi.

#### **IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)**

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>	<b>Soat</b>
<b>1-семестр</b>			
1.	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish	1-mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish 1.Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni. 2.Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi. 3.Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita(MHXSQ)ning maqsadi va uning tavsifi. 4.Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini	2

		ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari. 5.Moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari. MHXS (IFRS) 1 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo‘llash”.	
2.	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar	2-mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar 1.BHXS №1 “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.BHXS (IAS) 7 “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 3.BHXS (IAS) 8 “Hisob siyosatlari, buxgalteriya hisobi maqsadida baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 4.BHXS (IAS) 10 “Hisobot davridan keyingi hodisalar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 5.BHXS (IAS) 21 “Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	2

## 2-Modul. MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TAVSIFI

3	<b>Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi</b>	3-mavzu. Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi 1.BHXS (IAS) 11 “Qurilish shartnomalari” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.BHXS (IAS) 18 “Tushum” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	4
4.	Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4-mavzu. Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi</b> 1.BHXS (IAS) 2 “Zaxiralar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.BHXS (IAS) 16 “Asosiy vositalar”. 3.BHXS (IAS) 23 “Qarzlar bo‘yicha xarajatlar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 4.BHXS (IAS) 40 “Investitsion mulk” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 5.BHXS (IAS) 38 “Nomoddiy aktivlar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 6.MHXS (IFRS) 5 “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	4
5.	Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	5-mavzu. Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. 1.BHXS (IAS) 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	4

		2.MHXS (IFRS) 13 “Haqqoniy qiymatni baholash” standartining mazmuni va qo‘llanilishi	
6.	Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>6-mavzu. Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi</b> 1.BHXS (IAS) 37 “Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.BHXS (IAS) 12 “Foyda soliqlari” standartining mazmuni va qo‘llanilishi	2
7.	Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>7-mavzu. Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi</b> 1.BHXS (IAS) 32 “Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.BHXS (IAS) 39 “Moliyaviy instrumentlar: tanolish va baholash” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 3.MHXS (IFRS) 7 “Moliyaviy instrumentlar: ma‘lumotlarni ochib berish” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	4
8.	Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	8-mavzu. Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi B1.HXS (IAS) 28 “Qaram tashkilotlardagi va qo‘shma korxonalardagi investitsiyalar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi. 2.MHXS (IFRS) 10 “Jamlangan moliyaviy hisobotlar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.	4
9.	Moliyaviy hisobot transformatsiyasi	9-mavzu. Moliyaviy hisobot transformatsiyasi 1.MHXS bo‘yicha hisobotni tuzishning uslublari. Moliyaviy hisobotni transformatsiya bo‘yicha tartibga solish. 2.Hisobotlarni shakllantirish va nazorat jarayonlari. 3.Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish tartibi, uning maqsadi va qo‘llanilish sohasi.	4
<b>1-semestr jami</b>			<b>30</b>

## Amaliy mashg‘ulotlar 1-semestr

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	
<b>1.</b>	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish	<b>2</b>
<b>2.</b>	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiylar masalalar	<b>2</b>
<b>3.</b>	Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4</b>
<b>4.</b>	Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4</b>
<b>5.</b>	Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4</b>
<b>6.</b>	Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>2</b>
<b>7.</b>	Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4</b>
<b>8.</b>	Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi	<b>4</b>
<b>9.</b>	Moliyaviy hisobot transformatsiyasi	<b>4</b>
<b>1-semestr jami:</b>		<b>30</b>

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor- o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalinish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### Laboratoriya mashg‘ulotlari

Laboratoriya mashg‘ulotlari rejalashtirilmagan.

### V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’limning shakl va mazmuni

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fani bo‘yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta“minlangan.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘srimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda internet saytlaridan foydalanib, konseptlar, referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarini bajarish, qo‘srimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma‘ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konseptlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash

esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma“ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to‘plamlarni chuqur o‘rganish;
- interaktiv va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta“limni tashkil etishda qatnashish;
- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish.

#### **Mustaqil ish ning namunaviy mavzulari:**

1. Buxgalteriya hisobining Britaniya-Amerika modeli va uni O‘zbekistonda amaliyotida hisobotlarni transformatsiya qilishdagi muammolar.
2. Buxgalteriya balansini tuzishdagi gorizontal va vertikal usullarning farqi va O‘zbekiston amaliyotida qo‘llashdagi muammolar.
3. Buyuk Britaniyadagi professional buxgalterlik tashkilotlarining faoliyati va ularning MHXS joriy etishdagi o‘rni.
4. Germaniyadagi professional buxgalterlik tashkilotlarining faoliyati va ularning MHXSlarni qonuniy tartibga solinishidagi tajribasi.
5. Yaponiyada buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi va MHXSlarni qonuniy tartibga solishdagi tajribasi.
6. Xalqaro kontseptsiyalarni tartibga soladigan xalqaro hujjatlar va ularni O‘zbekistonda qo‘llashdagi muammolar va uni takomillashtirish.
7. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining milliy kontseptual asoslarini xalqaro kontseptsiyalariga muvofiqlashtirishdagi muammolar va uni takomillashtirish.
8. Dunyo mamlakatlari buxgalteriya hisobi milliy standartlarining MHXSlarga muvofiqligi va MHXSlarga o‘tishidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo‘llari
9. O‘zbekiston Respublikasi BHMSlarini MHXSlari asosida takomillashtirishni zarurati va amaliyotga tatbiq qilishdagi muammolar.
10. Xalqaro talablar bo‘yicha buxgalteriya balansini tuzish va unda axborotlar aks ettirish va taqdim qilish tajribasi.
11. Xalqaro talablar bo‘yicha foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va unda axborotlar aks ettirish hamda taqdim qilish tajribasi.
12. Xalqaro talablar bo‘yicha xususiy kapital hisobotini tuzish va unda axborotlar aks ettirish hamda taqdim qilish tajribasi.
13. Xalqaro talablar bo‘yicha pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va unda axborotlar aks ettirish va taqdim qilish tajribasi.
14. Xalqaro talablar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tartibga soladigan MHXSlarini amaliyotga qo‘llashlashdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
15. MHXSlari talablari bo‘yicha bitta aktsiyaga to‘g‘ri keladigan foyda summasini aniqlash va taqsimlash qoidalari hamda uni takomillashtirish yo‘llari.
16. O‘zbekistonda aktsiyaga to‘g‘ri keladigan foyda va segmentlar to‘g‘risida milliy standartlarni ishlab chiqishdagi muammolar va uni takomillashtirish.

17. MHXSlari talabi bo'yicha chet el valyutasi bilan bog'liq faoliyatning asosiy jihatlari va uni takomillashtirish.
18. MHXSlari talablari bo'yicha giperinflyatsiya mavjud malakatlarda moliyaviy hisobotlarni tuzish tajribasi va undagi mavjud muammolar.
19. MHXSlari talablari bo'yicha tugallanayotgan faoliyatda aks ettiriladigan axborotlar tarkibi va uni taqdim qilish amaliyoti.
20. MHXSlarda uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi va uni takomillashtirish yo'llari.
21. MHXSlari talablari bo'yicha mulk, bino va inshootlarni kapital ta'mir qilish va tasarruf etish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda uni takomillashtirish.
22. MHXSlari talablari bo'yicha nomoddiy aktivlarni tan olish, tannarxini aniqlash va hisobda aks ettirish hamda uning hisobini takomillashtirish.
23. MHXSlari talablari bo'yicha aktivlarning qadrsizlanishidan ko'rilgan zararni tan olish va hisobda aks ettirishni takomillashtirish.
24. MHXSlari talablari bo'yicha soliq aktivlari va soliq majburiyatlarini hisoblash tartibini takomillashtirish.
25. MHXSlari talablari bo'yicha rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobini takomillashtirish.
26. MHXSlari talablari boyicha moliyaviy instrumentlarni o'lchash va tan olish, baholash va uni hisobga olishni takomillashtirish.
27. Moliyaviy instrumentlarni xedjirlashni hisobga olish va uni takomillashtirish.
28. MHXSlari talablari bo'yicha kompaniyalar biznesining birlashishini hisobga olish va uni takomillashtirish yo'llari.
29. MHXSlari talablari bo'yicha kompaniya biznesni birlashtirish jarayonida xarid qilingan kompanianing aktivlari va majbariyatlari baholash tartibi va uni takomillashtirish yo'llari.
30. 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" MHXS (IAS)ni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
31. 2-sonli "Zaxiralar" MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolar hamda standartni takomillashtirish.
32. 7-sonli "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" MHXS (IAS)ni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
33. 8-sonli "Hisob siyosati, hisob baholashidagi o'zgarishlar va xatoliklar" MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolarni takomillashtirish.
34. 10-sonli "Buxgalteriya balansi sanasidan keyingi hodisalar" MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolarni takomillashtirish.
35. 18-sonli "Tushumlar" MHXS (IAS)ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
36. 19-sonli "Xodimlarga qo'shimcha to'lovlar" MHXS (IAS)ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
37. 20-sonli "Davlat subsiyadiyalarini hisobga olish va davlat yordami to,,g,,risida ma'lumotni olib berish" MHXS (IAS)ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
38. 21-sonli "Chet el valyuta kurslari o,,zgarishlari ta'siri" MHXS (IAS)ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
39. 23-sonli "Qarzlar bo'yicha xarajatlar" MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolarni takomillashtirish.
40. 24-sonli "Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olib berish" MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolarni takomillashtirish.

41. 28-sonli “Assotsialashgan tashkilotlarga investitsiyalar” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
42. 29-sonli “Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
43. 32-sonli “Moliyaviy instrumentlar – axborotlarni taqdim qilish” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
44. 34-sonli “Oraliq moliyaviy hisobotlar” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
45. 36-sonli “Aktivlarning qadrsizlanishi” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
46. 37-sonli “Baholanadigan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
47. 20-sonli “Davlat subsiyadiyalarini hisobga olish va davlat yordami to‘g‘risida ma“lumotni ochib berish” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
48. 21-sonli “Chet el valyuta kurslari o,,zgarishlari ta’siri” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
49. 23-sonli “Qarzlar boyicha xarajatlar” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
50. 24-sonli “Bog‘liq tomonlar to‘g‘risidagi ma“lumotlarni ochib berish” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
51. 38-sonli “Nomoddiy aktivlar” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
52. 39-sonli “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
53. 40-sonli “Investitsion mulk” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
54. 41-sonli “Qishloq xo‘jaligi” MHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni takomillashtirish.
55. 1-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marotaba qo‘llash” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
56. 2 -sonli “Ulushli (Aktsiyaga) instrumentlar asosidagi to‘lovlar” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
57. 3-sonli “Biznesni birlashtirish» MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
58. 4-sonli “Sug‘urta shartnomalari” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
59. 5-sonli “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilayotgan faoliyat” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
60. 6-sonli “Foydali qazilmalar zahirasini qidirib topish va uni baholash” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
61. 7-sonli “Moliyaviy instrumentlar: Ma“lumotlarni ochib berish” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
62. 8-sonli “Operatsion segmentlar” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
63. 9 -sonli “Moliyaviy instrumentlar” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.

64. 10-sonli “Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
65. 11-sonli “Birgalikdagi faoliyat bo‘yicha kelishuvlar” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
66. 12 -sonli “Boshqa tadbirkorlik sub“ektlarida ishtirok etish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib berish” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
67. 13 -sonli “Haqqoniy qiymatni baholash” MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
68. «Kichik va o‘rta biznes uchun MHXS» MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo‘llari.
69. 37 -sonli(IAS) BHXS “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” standartini amaliyotga qo‘llash va uni takomillashtirish.
70. 21 -sonli(IAS) BHXS “Valyuta kursi o‘zgarishining ta’siri” standartini amaliyotga qo‘llash va undagi muammolar.
71. Tovar-moddiy zaxiralarning xalqaro standartlar asosida yuritilishi va uni takomillashtirish.
72. 11-sonli(IAS) BHXS asosida qurilish shartnomalarini hisobga olish tartibini amaliyotga joriy etish va uni takomillashtirish.
73. 16 -sonli(IAS) BHXS asosida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish.
74. 17 -sonli(IAS) BHXS asosida ijarani hisobga olish tartibini tashkil etish va uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar.
75. Aktivlarni qadrsizlanishini 36 -sonli(IAS) BHXS asosida yuritilishi.
76. Nomoddiy aktivlarni xalqaro standartlar asosida yuritilishini tashkil qilish va uni takomillashtirish.
77. Investitsiyaviy ko‘chmas mulkni 40-sonli (IAS)BHXS asosida hisobga olishni tashkil qilish va uni takomillashtirish.
78. 20 -sonli (IAS)BHXS asosida davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami haqidagi ma’lumotni yoritish va uni amaliyotga joriy etish.
79. 18 -sonli (IAS)BHXS asosida tushumlarni hisobga olish va uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar.
80. Foyda solig‘ini xalqaro standartlar asosida yuritilishini tashkil etish va undagi muammolar.
81. Qarzlar bo‘yicha xarajatlarni 23-sonli(IAS) BHXS asosida hisobga olishni tashkil etish va uni takomillashtirish.
82. Moliyaviy instrumentlar: ma’lumotni taqdim etish va yoritishni 32-BHXS asosida tashkil etish va uni takomillashtirish.
83. Moliyaviy instrumentlar: tan olinishi va o‘lchanishini 39-sonli BHXSda hisobga olishni tashkil etish va uni takomillashtirish.
84. Giperinflyatsiya iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotlarni 29-sonli BHXS asosida tuzish tartibi va uni takomillashtirish.
85. Biznesni birlashtirishni 22-sonli(IAS) BHXS asosida hisobga olishni tashkil etish va uni takomillashtirish.
86. Jamlama va alohida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standart asosida tuzishni tashkil etish va uni takomillashtirish.
87. Assotsiatsiyalangan korxonalarga investitsiyalarni 28-sonli(IAS) BHXS asosida yuritishni tashkil etish va uni takomillashtirish.

88. Qo'shma faoliyatda ishtirok etishni 31-sonli(IAS) BHXSda hisobga olishni tashkil etish va uning muammolari.
89. Sug'urta shartnomalarining xalqaro standartlarda hisobga olinishi va uni takomillashtirish.
90. Buxgalteriya balansi tuzilgandan keyiingi hodisalarning 10-sonli (IAS)BHXS asosida hisobga olishni tashkil etish va uning muammolari.
91. Segment hisobotlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olinishini tashkil etish va uning muammolari.
92. Ish haqining 19-sonli (IAS)BHXS asosida tuzish va uni takomillashtirish.
93. Nafaqa ta'minoti dasturlari bo'yicha hisob va hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashni takomillashtirish.
94. Bog'liq tomonlar haqidagi ma'lumotlarni 24-sonli(IAS) BHXS asosida yoritib berish va uni takomillashtirish.
95. 30-sonli (IAS)BHXS asosida banklar va shunga o'xshash moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy hisobot ma'lumotini yoritishni tashkil etish va uning muammolari.
96. Oraliq moliyaviy hisobotni 34-sonli(IAS) BHXS asosida tayyorlashni tashkil etish va uning muammolari.
97. Sotuvga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyatni 35-sonli (IAS) BHXSda hisobga olishni tashkil etish va uning muammolari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash va o'rnatilgan tartibda taqdim etish tavsiya etiladi.

### **Fan boyicha kurs ishi**

Kurs ishi o'quv rejaga ko'ra 70410401-Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligida nazarda tutilmagan.

## **VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdaggi 9-2018-sod buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

### **Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning)

mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

*Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.*

## **VII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Narbekov D., Raxmonov Sh., Turayev A. Moliaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018.
2. Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. Moliaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. –C.: SamISI, 2018. -421 b.
3. Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаэв Н.К. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Молия”, 2010. -272 б.
4. Teterleva, A. S. Mejdunarodniye standarti finansovoy otchetnosti : [ucheb. posobiye] / A. S. Teterleva ; M-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, Ural. feder. un-t. – Ekaterinburg : Izd-vo Ural, 2016. – 176 s.
5. Primeneniye MSFO: v 3 ch./Per. s angl. – 5-ye izd., pererab. i dop. – M.: Yunayted Press, 2010. – 1056 s.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

6. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash– yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.48 b.

### **Internet saytlari**

11. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
12. www.lex.uz – O‘zbekiston Res-kasi Qonun hujjatlari ma“lumotlari milliy bazasi.
13. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
14. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.
15. [www.zi](http://www.zi.yonet.uz) yonet.uz (Axborot-ta’lim portalı)

